

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY O'YINLARI ASOSIDA BOLALARDA TA'LIM-TARBIYANI INNAVATSION METODLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

*Abduvositov Sardorbek Baxtiyor o'g'li*

Namangan davlat uversiteti Jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

[abdulbositovsardor@gmail.com](mailto:abdulbositovsardor@gmail.com)

*Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning milliy o'yinlar vositasida ijtimoiy faolligini hamda ta'lim tarbiyani yangi metodlar orqali o'rgatish haqida yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: o'yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy ta'sir, munosabat, didaktik o'yin, harakatli o'yin.*

## Kirish

Milliy xalq o'yinlariga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalq o'yinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o'ziga singdirishni, go'zallik, nafosat, ma'nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o'z atrofidagi barcha narsalarni tushunish, to'g'ri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va o'z xulq-atvoriga gard yuqtirmaslikka bo'lgan moillikni, qilayotgan ishi, aytayotgan gapi va barcha hatti-harakatida qo'rslik, ag'allikka aslo yo'l qo'yilmaslikni rivojlantirish lozim bo'ladi.

Milliy o'zbek o'yinlarini yoshlar, ayniqsa tarbiyalanuvchilar sevib, maroq bilan o'ynamoqdalar. Bunday o'yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki hovlilar va bog', parklarda dam olish soatlarida o'ynaladi. Muhim sifatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir bayon qilingan material ko'proq o'yin tarzida beriladi, lekin mashqlarni tuShuntirish va faol dam olish uchun qisqacha pauzalar bo'lgan kichik dozada uzluksiz bajariladi. O'yin mashqlaridan keyin bo'shashtiradigan, ohista yuriladigan mashqlarni yoki diqqat-e'tiborini o'stiradigan mashqlarni berish lozim.

**Masalan:** Milliy o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi.

Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy o'yinlarining tutgan o'rnini ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Halqimiz orasida har bir faslga mos o'yinlar mavjud bo'lib o'ynalib kelingan. O'zbek milliy o'yinlari hatiyiligi, har tomondan yaratilganligi uchun xam katta-yu kichik va hatto xotin-qizlartomonidan sevib uynalgan. Ota-bobolarimiz o'z farzandlarini qiyinchiliklar oldidavoddiramaslik, qurqmaslik ruxida tarbiyalab uni yechishga o'rgatganlar. Ko'p yillar davomida yiqqan malakalariga tayanib o'z farzandlariga badan tarbiya va aqliy o'yinlardan foydalanish yo'l yo'riqlarini ko'rsatganlar Og'ir mehnatdan keyin kishilar bir joyga to'planishib turli milliy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lganlar, dam olganlar .



Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar.

Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir. Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynovchilar soni ko'p bo'lmasa-da, bolalar qiziqib o'ynaydilar.

Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog'chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta'minlash uchun yosh guruhlarida rang-barang o'yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o'yinlar qoidalarining ichki, April 25, 2024 263 yashirin tabiati bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o'ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidali o'yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo'ladi.

**Tarbiya berish vazifalari.** Jismoniy madaniyat bilan shug'ullanishda, bolalarda joriy qilingan tartibga rioya qilish odatini hamda xalq o'yinlari bilan iloji bo'lsa xar kuni muntazam ravishda Shug'ullanish ishtiyoqini uyg'otish, ularda maktab va uyda Shu o'yinni bilan mustaqil shug'ullana olish layoqatini rivojlantirish, ularni o'z tengqurlari va o'zlaridan kichik bo'lgan bolalar jamoasida o'yinlarni tashkil qilish, ularni birgalikda bajarishga o'rgatish lozim.

Bu o'ynovchiga suyuqetni osonlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o'yinlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va ularga ulkan ta'sir ko'rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o'yinlardan foydalanish xato bo'lur edi. Bolalarning qoidali o'yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalar harakatlarning muayyan normalarini so'ng esa bolalarning bir-biriga bo'lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o'zini va o'zi bilan birga o'ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi.

Qoidalami bajarishdagi mustaqillik o'yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o'ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo'ladi. O'yinning ijtimoiy O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi. Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o'yinlar qiziqтира boshlaydi. Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakterlariga taqlid qilib, o'ynar ekan, shu qatorda ularning ma'nosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni engishga o'rganadi. Unda harakat ko'nikmalariga hosil bo'ladi va tasavvuri tobora boyib boradi.

Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchun uchungina emas, balki ularga, aqliy, ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plashib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qat'iyatini ko'rsatish, jamiyat oldida faqat o'zining emas, balki o'rtog'larining hatti harakatlari uchun ham javobgarlik hissini seza olishni o'zida shakllantirib borishi zarur.



**Xulosa:** Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bundan tashqari milliy o‘yinlar asosida ta’lim-tarbiya, odob –axloqning maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida o‘yinlar katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o‘yinlari taklid qilish tabiatida bo‘ladi.

Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o‘zgacharoq faxmlaydi, kuzatiladi. O‘yindagi ba’zi narsalarni o‘yiniga kiritadi va shu o‘yin vositasida o‘zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo‘ladi.

Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Xo‘jayev. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan harakatli o‘yinkar”. Toshkent – 2022
2. Qodirova R.M. Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalari uchun darslik. T.:, “Istiqlol”, 2006 y.
3. Imomova SH.M., Norova F.F. Учебные методы организации спортивнооздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.
4. Soliyev I. et al. The role of aesthetic education in introducing children to the environment //Science and Innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 801-804. International scientific and practical conference“current issues of special pedagogy and pre-school education: problems, solutions and development prospects” April 25, 2024 264
5. Sobirovich S. I. et al. Socio-personal and mental development of a preschooler //Ijodkor o‘qituvchi. – 2022. – Т. 2. – №. 23. – С. 50-54.
6. Soliyev I. et al. Tarbiyalanuvchilar ijtimoiy faolligini oshirishda foydalaniladigan milliy o‘yinlar //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 83-86.
7. Tursunaliyeva D. et al. Maktabgacha yoshdagi bolalarning hayotida o‘yin faoliyatining o‘rni //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №.5 Part 2. – С. 129-131.
8. Fozilova O., Omonova M. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘yin faoliyatini tashkil etishning o‘ziga xosligi //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 5 Part 2. – С. 98-101.

